

JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING HUQUQIY LAYOQATI HAMDA MUOMALA LAYOQATINING BOJXONA HUQUQIY MUNOSABATLARIDAGI O'RNI

Sattorov Dilshod Yuldashevich

Ilmiy rahbar- bojxona instituti o'qituvchisi

Nazarov Toxir Normat o'g'li

Bojxona instituti 1-kurs

425-guruh kursanti

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 13.01.2026

Revised: 14.01.2026

Accepted: 15.01.2026

KALIT SO'ZLAR:

*Jismoniy shaxs,
yuridik shaxs, huquqiy
layoqat, huquqiy
muomala layoqati,
huquq subyekti,
bojxona huquqi,
bojxona huquqiy
munosabatlari, davlat
va huquq nazariyasi*

Mazkur maqolada jismoniy va yuridik shaxslarning huquqiy layoqati hamda huquqiy muomala layoqati davlat va huquq nazariyasi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Bojxona huquqiy munosabatlarida ushbu shaxslarning huquq subyekti sifatidagi o'rni va ishtiroki yoritib beriladi. Jismoniy va yuridik shaxslarning bojxona sohasidagi huquq va majburiyatlarini amalga oshirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, huquqiy layoqat va muomala layoqatining davlat tomonidan huquqiy tartibga solinishi masalalariga e'tibor qaratiladi. Maqolada amaldagi qonunchilikni takomillashtirishga oid nazariy xulosalar keltiriladi

Bugungi globallashuv sharoitida xalqaro savdo hajmining ortib borishi, tashqi iqtisodiy aloqalarning jadallashuvi hamda bojxona tizimining iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashdagi rolining kuchayishi huquqiy munosabatlarni takomillashtirishni talab etmoqda. Mazkur jarayonda bojxona huquqiy munosabatlarining samarali tartibga solinishi bevosita ushbu munosabatlarda ishtirok etuvchi subyektlarning huquqiy maqomi, xususan, ularning huquqiy layoqati va muomala layoqatining aniq belgilanganligi bilan chambarchas bog'liqdir.

Jismoniy va yuridik shaxslarning huquqiy layoqati ularning huquq va majburiyatlarga ega bo'lish imkoniyatini ifodalasa, muomala layoqati ushbu huquqlarni mustaqil ravishda amalga oshirish hamda yuridik ahamiyatga ega harakatlarni sodir etish qobiliyatini anglatadi. Bojxona sohasida mazkur institutlarning to'g'ri qo'llanilishi bojxona rasmiylashtiruv, tovarlarni olib kirish va olib chiqish, bojxona to'lovlarini to'lash,

deklaratsiyalash, shuningdek, javobgarlik masalalarini hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, subyektlarning huquqiy layoqati va muomala layoqatini noto'g'ri baholash bojxona qonunchiligi buzilishlariga, nizolar kelib chiqishiga hamda huquqni qo'llash jarayonida muayyan muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois, mazkur masalani nazariy va amaliy jihatdan chuqur tahlil qilish bojxona huquqi tizimini takomillashtirish, huquqiy aniqlikni ta'minlash hamda qonun ustuvorligini mustahkamlash nuqtayi nazaridan dolzarb hisoblanadi.

Mazkur maqolada jismoniy va yuridik shaxslarning huquqiy layoqati hamda muomala layoqatining bojxona huquqiy munosabatlaridagi o'rni, ularning huquqiy mohiyati, amaldagi qonunchilikdagi aks etishi hamda huquqni qo'llash amaliyotidagi ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Birinchi navbatda huquqiy layoqat va muomala layoqati haqida so'z yuritadigan bo'lsak, huquqiy munosabatlar subyekti bo'lish uchun shaxslar huquqiy layoqat yoki muomala layoqatiga ega bo'lishlari kerak. Huquqiy layoqat — fuqarolarning huquq va burchlarga ega bo'lish layoqati. Fuqaroning huquqiy layoqati u tug'ilgan paytdan e'tiboran vujudga keladi va butun hayoti davomida saqlanadi. Muomala layoqati — shaxsning o'z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo'lish va ularni amalga oshirish, o'zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqati. Bu ruhiy va yosh cheklanishlari bilan bog'liq.

Muomala layoqati quyidagicha bo'ladi:

- to'la hajmdagi (18 yoshdan boshlab);
- voyaga yetmaganlar (14 yoshdan 18 yoshgacha);
- kichik yoshdagi voyaga yetmaganlar (7 yoshdan 14 yoshgacha).

Fuqarolik kodeksiga voyaga yetmaganlar emansipatsiyasi tushunchasi kiritildi. Lotin tilidan tarjima qilinganda «emansipatsiya» so'zi «tobelikdan ozodlikka chiqish, huquqlarda tenglashish» ma'nosini anglatadi. Voyaga yetmaganlar quyidagi hollarda to'liq yuridik salohiyatga ega deb tan olinadi:

- 16 yoshga yetganidan so'ng;
- yovaga yetmagan shaxs tomonidan mehnat shartnomasi tuzish yoki tadbirkorlik faoliyati yuritishga ham otasi, ham onasining roziligi olinganida.

14 yoshga yetmagan (voyaga yetmagan — kichik yoshdagi bolalar) mayda maishiy bitimlarni bajarishga (masalan, do'kondan non xarid qilish, shuningdek ota-onasi yoki uchinchi shaxslardan olgan pul mablag'idan foydalanishga) haqli. Bundan tashqari, kichik yoshdagi bolalar evazsiz (badalsiz) manfaat ko'rishga qaratilgan ba'zi bitimlarni (tug'ilgan kunda sovg'a qilish) amalga oshirishlari mumkin. Kichik yoshdagi bolalar bajargan bitimlar uchun ularning ota-onasi javobgar bo'ladi.

14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar bitimlarni o'z ota-onalarining yozma roziligi bilan tuzishga haqlidirlar. Ular mustaqil ravishda o'z ish haqi, stipendiyasi, bankdagi omonatini tasarruf etish, mualliflik huquqidan foydalanishlari mumkin.

Fuqaroning muomalaga layoqatliligi nafaqat uning yoshiga (olti yoshgacha bolalar muomalaga layoqatsizdir), balki ruhiy sog'ligining holatiga ham bog'liqdir. Fuqaro o'z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan ruhiy kasallik (aqli zaiflik) fuqaroni muomalaga layoqatsiz deb topishga asos bo'lib, fuqaro, shuningdek, o'z harakatlarining ahamiyatini tushunsa-da, ammo ularni boshqara olmagan taqdirda ham muomalaga layoqatsiz deb topilishi mumkin.

Fuqaro faqat sud tartibida muomalaga layoqatsiz deb topilishi mumkin, bu esa uning huquqlarini kafolatlaydi va muhofazalaydi. Fuqaro muomalaga layoqatsiz deb topilganidan so'ng bunday fuqaroga vasiylik belgilanadi. Vasiy muomalaga layoqatsiz fuqaroning qonuniy vakili bo'lib, uning huquqlarini himoya qiladi hamda uning nomidan bitimlar va yuridik ahamiyatga ega boshqa harakatlarni amalga oshiradi. Basharti fuqaro muomalaga layoqatsiz deb topilishiga sabab bo'lgan asoslar bekor bo'lsa, sud sog'aygan fuqaroni muomalaga layoqatli deb topish hamda uning ustidan belgilangan vasiylikni bekor qilish haqida hal qiluv qarori chiqaradi.[1]

Huquqiy layoqat Konstitutsiyada bevosita nomlanmasa ham, shaxsning huquq va erkinliklarga ega bo'lishi, qonun oldida teng huquqliligi hamda huquq va erkinliklarni amalga oshirish huquqi kabi prinsiplar uning fuqarolik maqomini aniqlaydi. Konstitutsiya bo'yicha barcha fuqarolar huquq va erkinliklarda teng bo'lishi ta'minlanadi, bularning amalga oshirilishi davlat organlari tomonidan himoyalaniishi va rag'batlantirilishi lozim.[2]

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi fuqarolik huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi subyektlarning huquqiy layoqati va muomala layoqatini belgilaydigan normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi. Kodeksning 1169-moddasiga ko'ra, jismoniy shaxsning huquqiy layoqati va muomala layoqatlari uning shaxsiy qonuni bilan belgilanadi. Bu modda bo'yicha chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasida fuqarolik huquq layoqatidan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng sharoitda foydalanadilar, agar qonunda yoki xalqaro shartnomada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lmasa.[3]

Bu norma orqali Fuqarolik Kodeksi jismoniy shaxslarning fuqarolik huquqlaridan to'la yoki cheklangan holda foydalanishi tartibini aniq belgilaydi, shu bilan bojxona huquqiy munosabatlarida subyektlarning huquqiy maqomi, deklaratsiya berish, shartnomalar tuzish, javobgarlikni yuklatish hamda boshqa huquqiy harakatlarni amalga oshirish qobiliyatini normativ asosda tartibga soladi.

Bojxona huquqiy munosabatlarining tartibga solinishi — Kodeksning umumiy qoida moddalari

1-moddaga ko'ra, Bojxona kodeksi O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o'tish, bojxona to'lovlarini hisoblash va

undirish, bojxona rasmiylashtiruvi va nazoratini amalga oshirish hamda bojxona huquqini buzilishining oldini olish hamda bunday huquqbuzarliklarni aniqlash va tugatishni tartibga soladi[3]. Bu modda Bojxona kodeksi normativ doirasini belgilab beradi va jismoniy hamda yuridik shaxslarning huquq va majburiyatlari shu doirada yuzaga kelishini ko'rsatadi.

Tahliliy izoh: Bu norma shuni anglatadiki, bojxona huquqiy munosabatlarida ishtirok etayotgan har bir shaxs — jismoniy yoki yuridik — qonunchilikda belgilangan huquq va majburiyatlarga ega bo'lishi va ularga rioya etishi kerak. Ular deklaratsiya topshirish, bojxona tartib-taomillaridan o'tish, bojxona to'lovlarini hisoblash kabi huquqiy harakatlarni amalga oshiradi.

Shuni aytish o'rinliki, Davlat va huquq nazariyasiga ko'ra, huquq subyekti — huquqiy munosabatlarda ishtirok etish, huquq va majburiyatlarga ega bo'lish qobiliyatiga ega bo'lgan shaxsdir. Ushbu jihatdan jismoniy shaxs va yuridik shaxs huquqiy munosabatlarning asosiy ishtirokchilari hisoblanadi. Ularning huquqiy maqomi huquqiy layoqat va huquqiy muomala layoqati institutlari orqali belgilanadi. Huquqiy layoqat shaxsning huquq va majburiyatlarga ega bo'lish imkoniyatini ifodalasa, huquqiy muomala layoqati ushbu huquqlarni mustaqil ravishda amalga oshirish hamda yuridik ahamiyatga ega harakatlarni sodir etish qobiliyatini anglatadi.

Bojxona huquqi doirasida vujudga keladigan bojxona huquqiy munosabatlarida jismoniy va yuridik shaxslar bojxona organlari bilan o'zaro munosabatlarga kirishib, tovarlarni deklaratsiyalash, bojxona to'lovlarini to'lash, hujjatlarni taqdim etish va qonunchilikda belgilangan talablarni bajarish orqali o'z huquq va majburiyatlarini amalga oshiradilar. Mazkur jarayonda shaxslarning huquq subyekti sifatida ishtirok etishi bevosita ularning huquqiy layoqati mavjudligi va muomala layoqatining yetarli darajada shakllanganligiga bog'liq bo'ladi.

Shuningdek, davlat tomonidan huquqiy tartibga solish mexanizmi orqali shaxslarning bojxona sohasidagi huquq va majburiyatlari aniqlashtiriladi, ularning qonuniy manfaatlari himoyalana hamda huquqbuzarliklarning oldi olinadi. Huquqiy layoqat va huquqiy muomala layoqatining aniq belgilanishi bojxona huquqiy munosabatlarining barqarorligi, huquqiy aniqlik va qonun ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, maqolada jismoniy va yuridik shaxslarning huquqiy layoqati hamda muomala layoqatining bojxona huquqiy munosabatlaridagi o'rnini tahlil qilindi. Aniqlanishicha, huquqiy layoqat shaxsning huquq va majburiyatlarga ega bo'lishini, muomala layoqati esa ushbu huquqlarni amalda amalga oshirish va huquqiy harakatlarni sodir etish qobiliyatini ta'minlaydi. Bojxona huquqi doirasida jismoniy va yuridik shaxslar huquq subyekti sifatida ishtirok etib, deklaratsiya berish, bojxona to'lovlarini amalga oshirish va hujjatlarni taqdim etish kabi huquqiy amallarni bajaradilar. Davlat tomonidan huquqiy tartibga solish mexanizmlari esa ushbu shaxslarning huquq va majburiyatlarini aniq belgilash va himoya qilishni ta'minlaydi. Shunday qilib, huquqiy layoqat va muomala

layoqat bojxona huquqiy munosabatlarining barqarorligi, qonun ustuvorligi va shaxslarning huquqiy himoyasini kafolatlashda asosiy ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel, yangi tahrir, Toshkent sh.
2. <https://constitution.gov.uz>
3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, 29.08.1996-yil.
4. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi, 20.01.2016-yil
5. Davlat va huquq asoslari 10-sinf: O'rta umumta'lim muassasalarining 10-sinf-lo'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun darslik / V. Kostetskiy — Birinchi nashr. — Toshkent.: «Yangiyo'l poligraf servis», 2017. — 57-58- betlar.